



## YANGI O'ZBEKISTONDA SHAXS, JAMIYAT VA DAVLAT XAVFSIZLIGI MASALALARI

**M.Atadjanov**

*psixologiya kafedrasi dotsenti*

**A.Xaydaraliyev**

*psixologiya yo'nalishi magistri.*

*Farg'ona davlat universiteti.*

Bugungi kunda jahonda yuz berayotgan tahlikali voqealar, shubhasiz, har bir davlatning xavfsizlik choralarini kuchaytirilishini talab qilmoqda. Xavfsizlik tushunchasi keng qamrovli bo'lib, shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy manfaatlarini ichki va tashqi tahdidlardan himoyalanganlik holatini anglatadi, bunda xavfsizlikning asosiy obyektlari - shaxs, jamiyat va davlatdan iborat. Ushbu xavfsizlik obyektlarining barchasi bir-biri bilan uzbek bog'liq va ular orasidagi asosiy aloqa shaxs hisoblanadi. Uning hayoti va sog'lig'ini, huquq va erkinliklarini, qadr-qimmatini va mol-mulkini himoya qilish boshqa xavfsizlik obyektlarining xavfsizligi bilan chambarchas bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining shaxsiy xavfsizligi ularning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarni ta'minlanishini, hayot sifati va darajasini oshirishini, jismoniy, ma'naviy va intellektual rivojlanishini real ta'minlashni nazarda tutadi.

Jamiyat xavfsizligi bu uning moddiy va ma'naviy qadriyatlarini, qonuniyligi va tartibini himoya qilishni, demokratiyani mustahkamlashni o'z ichiga oladi. Shuningdek, ijtimoiy adolat printsipi asosida ijtimoiy kelishuvga erishish va uni saqlash, aholi faolligining ijodiy rolini oshirish hamda O'zbekistonning milliy va madaniy tiklanishi ham jamiyat xavfsizligining muhim yo'nalishi hisoblanadi.

Davlat xavfsizligi bu - uning konstitutsiyaviy tuzumini, suverenitetini va hududiy yaxlitligini himoya qilishdan iborat bo'lib, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashni, qonunlarning so'zsiz bajarilishini, buzg'unchi kuchlarga, korrupsiyaga, byurokratiyaga qat'iy qarshilik ko'rsatishni, mamlakatning harbiy salohiyatini muntazam oshirib borishni, chegaralar daxlsizligining ta'minlanishini qamrab oladi.

Jahon tajribasida xavfsizlik tizimi davlat, mintaqaviy yoki tarmoq miyosida to'rtta rejimda ishlaydi. Bular:

- tinchlik davri rejimi - bu mamlakatning milliy manfaatlariga tahdid bo'lmasan yoki ularni amalda zararsizlantirish sharoitida xavfsizlik tizimining normal ishlash tartibi;
- yuqori tayyorgarlik rejimi - bu xavfsizlik tizimining oldini olishni talab qiladigan tahdidlar mavjud bo'lgandagi ishlash tartibi;



- favqulodda holat rejimi - bu zararsizlantirish yoki yo'q qilishni talab qiladigan, davlatning milliy manfaatlariiga tahdidlar mavjud bo'lganda xavfsizlik tizimining ishslash tartibi;

- urush davri rejimi - bu davlatning hududiy yaxlitligi buzilgan taqdirda, uni himoya qilish uchun vujudga kelgan to'g'ridan to'g'ri qurolli to'qnashuvlar bo'lib, dushmanni yakson qilishni talab qiladigan, mamlakatning milliy manfaatlariiga tahdidlar mavjud bo'lgandagi xavfsizlik tizimining ishslash tartibi hisoblanadi.

Shuningdek, xavfsizlik tarkibini quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Siyosiy xavfsizlik - umummilliy manfaatlarni amalga oshirish va ijtimoiy farovonlikka erishishga qaratilgan faoliyatni amalga oshirish uchun mo'ljallangan bo'lib, bunda barcha ijtimoiy qatlamlar u yoki bu tarzda hokimiyat apparati faoliyati bilan uzviy bog'liq bo'ladi, uning faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi yoki o'z pozitsiyasini bildiradi.

2. Iqtisodiy xavfsizlikka iqtisodiyot tizimining eng muhim sifat xarakteristikasi sifatida qaraladi, bu aholining normal yashash sharoitlarini saqlab qolish qobiliyatini belgilab beradi.

3. Ijtimoiy xavfsizlik - bu nafaqat jamiyatning ijtimoiy tashkilotining tuzilishi, balki siyosiy, huquqiy, ekologik vaziyat, fuqarolik jamiyati va davlatning moddiy va intellektual resurslari mavjudligi bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy hayotning barcha himoya vositalarining kombinatsiyasi hisoblanadi.

4. Ma'naviy xavfsizlik - bu ijtimoiy ong, ma'naviy qadriyatlар va madaniyatni birlashtirgan ijtimoiy-madaniy muhitning ma'lum bir holati sanaladi.

5. Axborot xavfsizligi - bu davlatning axborot resurslari va xavfsizligi, axborot sohasidagi shaxs va jamiyatning qonuniy huquqlarining holatidir.

6. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar birinchi navbatda aholini har tomonlama qo'llab quvvatlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, mamlakat iqtisodiy qudratini yanada oshirish, Qurolli Kuchlarimizning harbiy salohiyati muntazam oshirib borish, o'zaro manfaatli va teng tashqi siyosat olib borishga qaratilgan. Albatta, o'zini anglab yetgan har bir inson tinch sharoitlarda yashashni, farzandlariga munosib hayotiy sharoit yaratishni xohlaydi. "Ehtiyojlar piramidasasi"ni yaratgan psixolog A.Maslou o'zining "Motivatsiyalar nazariyasi" asarida ta'kidlaganidek, odamlarning xilma-xil va o'zgaruvchan ehtiyojlari har doim va barcha uchun o'zgarmas bo'lgan insonning asosiy ehtiyojlari matritsasiga, faoliyatning ichki motivatorlariga asoslanadi(A.Maslouning motivatsiya nazariyasi, 1954). Birinchi navbatda, fiziologik ehtiyojlar - insonning omon qolishini ta'minlaydigan ehtiyojlar - bular suv, oziq-ovqat, dam olish, jinsiy aloqa va boshqalarni o'z ichiga oladi. Ikkinchi o'rinda xavfsizlikka bo'lgan ehtiyoj - atrofdagi dunyoning jismoniy va psixologik tahdidlaridan himoya qilish va kelajakda bu ehtiyojlar qondirilishiga bo'lgan ishonch. Uchunchi o'rinni ijtimoiy ehtiyojlar - boshqa odamlar bilan ijtimoiy muloqot qilish ehtiyoji egallagan. Bunda oilaviy munosabatlar, sevgi va hokazolar, shuningdek, atrofingizdag'i odamlar sizni qabul qiladilar hamda tushunadilar. Keyingi o'rin hurmatga bo'lgan ehtiyoj - o'z-



o'zini hurmat qilish, vakolatga ega bo'lish, atrofdagilar tomonidan tan olinish kabilarni o'z ichiga oladi. Eng yuqori o'rinda o'zini namoyon qilish, o'zini anglash zarurati - bu insonning ichki salohiyatini ro'yobga chiqarish va shaxsni shaxs sifatida rivojlantirish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni anglatadi.

Shunday qilib, insonning xavfsizlikka bo'lgan ehtiyoji qolgan asosiy ehtiyojlari unga "xizmat qiladigan" va "o'sadigan" ildiz hisoblanadi. Chunki xavfsizlik inson hayotining barcha sohalaridagi ongli faoliyatning asosiy maqsadi hisoblanadi

Umuman olganda, shaxs xavfsizligiga jamiyat xavfsizligi shartlaridan biri sifatida qaraladi, bu esa o'z navbatida xavfsiz davlatni tashkil etadi. Insonning ustuvorligi, uning huquqlari va erkinliklari konstitutsiyaviy qadriyatlar printsipiga asoslanib, xavfsizlik obyektlari triadasida asosiy xarakterga ega bo'lgan shaxsning xavfsizligi birinchi o'ringa chiqadi. Bundan tashqari, odamni qisqa vaqt ichida shaxs sifatida ko'rib chiqish mumkin emas. Chunki "shaxsni shakllanishi" degan tushuncha mavjud bo'lib, "u inson hayoti davomida shakllanadi, tug'ilish paytidayoq paydo bo'lmaydi" degan xulosaga kelish mumkin.

Har qanday shaxs uchun ijtimoiy-siyosiy muhit bilan munosabatlarni o'rnatishning muvaffaqiyati ko'p jihatdan davlat tomonidan unga berilgan shaxs xavfsizligining ijtimoiy kafolatlari tizimiga bog'liq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida (2023) ijtimoiy xavfsizlik quyidagicha ifodalanadi:

1. Ijtimoiy ta'minot:

- yoshga qarab;
- kasallik, nogironlik, boquvchisini yo'qotish holatlarida;
- bolalarni tarbiyalash uchun;
- va qonunda belgilangan boshqa hollarda (46-modda);

2. Uy-joy, tibbiy yordam va sog'liqni saqlash, qulay muhit huquqiga ega bo'lgan fuqarolarning munosib turmush darajasini saqlab qolish (47-48-49-moddalar).

Ushbu konstitutsiya normalari Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasining 22-moddasida (1948) o'z aksini topgan.

Shunga asoslanib, shaxs xavfsizligining ijtimoiy kafolatlarining asosiy shakllari yashash minimumi va unga asoslangan eng kam pensiya va eng kam ish haqi, bola tug'ilganda, ishsizlik, kasallik, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik, homiladorlik va tug'ish munosabati bilan moddiy yordam, bolani tarbiyalashda, ayniqsa, yolg'iz ota-onalar uchun, yetimlarni qo'llab-quvvatlash, nogironlar, kam ta'minlangan fuqarolarga ko'maklashish eng muhim omillar hisoblanadi.

Shaxsning jismoniy xavfsizligi odamlarning aksariyati uchun ustuvor ahamiyatga ega. Bu insonning tanasini, uning tuzilishi va o'ziga xos metabolizmining yaxlitligiga tashqi tajovuzlardan himoya qilish uchun biologik ehtiyojini aks ettiradi. Bu odamga har qanday sharoitda, har qanday jamiyatda o'zini qulay his qilish imkonini beradi. Uning yutug'i har bir shaxs, umuman jamiyat, davlat va butun dunyo hamjamiyatining asosiy vazifasidir.



Shaxsning iqtisodiy xavfsizligi jamiyatdagi farovonlik va barqarorlikning ko'rsatkichidir. Bu insonning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishga bo'lgan ishonchiga asoslanadi. Shaxsning iqtisodiy xavfsizligi, nafaqat, inson yashaydigan davlat yoki jamiyatga, balki shaxsning o'ziga ham bog'liq. Bundan tashqari, butun jamiyatning iqtisodiy xavfsizligi har bir fuqaroning, har bir shaxsning iqtisodiy xavfsizligi bilan uzviy bog'liqdir.

Shaxsning axborot xavfsizligi - bu uning huquqlari va erkinliklarining barcha axborot qurilmalaridagi xavfsizligi taminlangan shaxs hayotining holati va shartidir. Shaxsning axborot xavfsizligi psixikani, ongi xavfli axborot ta'siridan (manipulyatsiya, noto'g'ri ma'lumotlar va boshqalar) himoya qilish bilan tavsiflanadi. Bu shaxsning shaxsiy fazilatlariga ham, jamiyatdagi axloqiy, ijtimoiy va huquqiy sharoitlarga ham ta'sir qiladi.

Shaxsning psixologik xavfsizligi, qoida tariqasida, insonning asosiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan - fiziologik, moddiy, axborot, shuningdek aloqa, o'zini namoyon qilish va o'zini o'zi qadrlash ehtiyojlarining amalga oshish shart sharoitlari bilan bo'g'liq. Zamonaviy axborot va ijtimoiy bosim sharoitida shaxsning mavjudligi va rivojlanishi bog'liq bo'lgan psixologik xavfsizlikka bo'lgan ehtiyoj odamda dominant rol o'yndaydi.

Shaxs xavfsizligi subyektlari – davlat va uning institutlari (qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati organlari, hududiy hokimiyat organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, davlat muassasalari, idoralar va boshqalar), ijtimoiy tuzilmalar (siyosiy partiyalar va birlashmalar, jamoat tashkilotlari va boshqalar), oila, fuqarolar sanaladi.

O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 29-noyabrdagi farmoni bilan «O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiysi» tasdiqlandi. Konsepsiada jamoat xavfsizligi sohasidagi asosiy tushunchalarga izoh berib o'tilgan. Jumladan, jamoat xavfsizligi – jamiyatning qonunga xilof tajovuzlar, ijtimoiy va millatlararo nizolar, favqulodda vaziyatlar va boshqa tahdidlardan himoyalanganlik holati bo'lib, u jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi hamda insonning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ro'yobga chiqarilishini ta'minlaydi.

Bunda milliy manfaatlar sifatida:

- jamiyatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlash;
- aholining huquqiy ongi va siyosiy-huquqiy madaniyatini, ijtimoiy faolligi, fuqarolik mas'uliyatini oshirish;
- davlat va jamiyat boshqaruvi tizimini mustahkamlash, davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish;
- mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalarining faol va bunyodkor rolini oshirish;



- jamiyatda millatlararo va dinlararo munosabatlarni, diniy bag'rikenglik madaniyatini, do'stlik, o'zaro hamkorlik va gumanizmni har tomonlama mustahkamlash kabi ustuvor maqsadlar ko'zlanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, xavfsizlik har qanday davrda eng dolzarb muammo hisoblangan. Chunki xavfsizlik ta'minlanmas ekan, davlatni, jamiyatni rivojlantirishning iloji bo'lmaydi. Yurtimizning tinchligi, osmonimizning musaffoligi amalga oshirilayotgan ishlarning natijasi hisoblanadi. Mamlakatni rivojlantirish uchun har bir sohada xavfsizlik taminlangan va inson qadri ulug'langan bo'lishi lozim. Zero, Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Xalqimizning xavfsizligi, tinchligi va osoyishtaligini saqlash bugun ham, kelajakda ham eng ustuvor vazifamiz bo'lib qoladi. Chunki faqatgina tinchlik-osoyishtalik mamlakatimizning har tomonlama rivojlanishining asosiy kafolatidir".

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi. Toshkent. 2023 y.
2. Erkin va farovon, demokratik O'zbekistonni bиргаликда barpo etamiz. Sh.M.Mirziyoyev. Toshkent 2017 y.
3. «O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiysi» 27-sonli Prezident farmoni. Toshkent 2021 y.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 13-yanvar Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishidagi nutqi.
5. Атаджанов М.Ю. История становления и развития психологической мысли в Узбекистане. – 1991. MLA
6. Атаджанов М.Ю. Миллий психологик қиёфа хусусиятларининг шаклланиш омиллари ва намоён бўлиш соҳалари, 0,7 б.т., International scientific jornal "Interpretation and researches". Voiume 1 ISSN 2181-4163. UIF -2023:8.2 231-243. MLA
7. "Motivatsiyalar nazariyasi" A.Maslou. 1954 y.
8. М.Отажонов Психоанализ асослари- Т.,«Узбекистон, 2004 APA
9. Отажонов, М.Ю. "Миллий психологик қиёфа ва характерни ўрганишнинг назарий ва методологик асослари." Илмий хабарлар N-119: 19-21. APA
10. Abdullayeva, A.R. (2023). Psychological factors of forming a healthy lifestyle in the family. *Open Access Repository*, 4(03), 43-50.
11. Abdullayeva, A.R. (2023). THE SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL INFLUENCE OF THE FAMILY ON THE FORMATION OF A HEALTHY LIFESTYLE. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(3), 670-674.
12. Абдулаева, А.Р. (2022). ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ В СИСТЕМЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО И МУНИЦИПАЛЬНОГО УПРАВЛЕНИЯ. *Uzbek Scholar Journal*, 6, 26-29.



13. Абдуллаева, А., & Тошболтаева, Н. (2023). ОНГ ВА ТАФАККУР БУЗИЛИШЛАРИ. *FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES*, 2(18), 21-26.
14. Абдуллаева, А. (2023). ЁШЛАРНИ ОИЛАВИЙ ҲАЁТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 3(30), 467-473.
15. Abdullaeva, A., & Rakhmonov, S. (2023). MANAGEMENT PSYCHOLOGY AND ITS RESEARCH METHODS. *Open Access Repository*, 4(3), 1449-1454.
16. Abdullaeva, A. (2021). PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE IMPACT OF INTERPERSONAL RELATIONSHIPS IN THE FAMILY ON THE CHILD'S PSYCHE. *Теория и практика современной науки*, (5 (71)), 3-6.
17. Абдуллаева, А.Р. (2023). ОИЛА ФУНКЦИЯЛАРИНИ ОТА-ОНА ВА ФАРЗАНД МУНОСАБАТЛАРГА ТАЪСИРИНИ ИЖТИМОЙ- ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(6), 160-164.
18. Абдуллаева, А.Р., & Абдукаримова, М.Р. (2022). ОИЛАДА АЖРИМЛАРНИ ОЛДИНИ ОЛИШДА НИКОҲ МОТИВЛВРИНИНГ ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(14), 1132-1138.
19. Zaynobiddinov, S.Z., Mamatokhunov, Y.A., & Rakhmatulina, R. (2019). METHODOLOGY OF THE ORGANIZATION OF EDUCATIONAL AND METHODICAL ACTIVITIES OF PUPILS IN THE PROCESS OF FORMATION OF THEIR INDEPENDENCE AT PHYSICS LESSONS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(1).
20. Зайнобиддинов, Ж. (1989). Особенности влияния идентификации на формирование профессионально-педагогической направленности студентов. *Изд-во ЦКФЛРАО*.
21. Ж.Зайнобиддинов //IDENTIFICATION AND IMITATION ARE THE QUALITY OF MOTIVATION FOR CAREER CHOICE OF TEENAGERS// American Journal of Interdisciplinary Research and Development. Volume 17, June, 2023. 99-101.
22. Zaynobbiddinov Jamoldin. (2023). THE ORIGIN OF STUDENTS WHO DO NOT LEARN AT SCHOOL DEPENDS ON SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS. *Uzbek Scholar Journal*, 13, 54-59.
23. Zaynobbiddinov Jaloldin. (2022). STUDY OF NON-ASSIMILATING STUDENTS IN PSYCHOLOGICAL SOURCES IN FOREIGN LITERATURE *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 1680-1685.
24. ЗАЙНОБИДДИНОВ ЖАЛОЛИДДИН //ИДЕНТИФИКАЦИЯ КАК ФАКТОР ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ НАПРАВЛЕННОСТИ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО БЛАГОПОЛУЧИЯ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ// ПРОБЛЕМЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО БЛАГОПОЛУЧИЯ. Екатеринбург, 19 марта, 2021 года. 305-311 стр.
25. Зайнобиддинов, Ж. (2021). ИДЕНТИФИКАЦИЯ КАК ФАКТОР ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ НАПРАВЛЕННОСТИ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО



БЛАГОПОЛУЧИЯ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ. In *ПРОБЛЕМЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО БЛАГОПОЛУЧИЯ* (pp. 305-311).

26. Ж.Зайнобиддинов //ИНКЛЮЗИВ ТАЪЛИМ ОЛАЁТГАН БОЛАЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИНИ ПСИХОЛОГИК ЎРГАНИШ// INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023: a collection scientific works of the International scientific conference. 27 th June, 2023. Chelyabinsk, Russia: "CESS", 2023. Part 20. 1013-120.

27. Topvoldiyevna, M.E., & Adxam o'g'li, X. A. (2023). ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССОВ МЫШЛЕНИЯ ДЕТЕЙ С НАРУШЕНИЯМИ РЕЧИ, ОБУЧАЮЩИХСЯ В УСЛОВИЯХ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(1), 217-225.

28. Zakirova Muxabbat Sabirovna (2023). MAKTABGACHA YOSHGADI BOLADA O „ZI HAQIDAGI TASAVVURLARNING SHAKLLANISHI. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(7), 104-113.

29. Topvoldievna Mirzajonova Eleonora, Abdukadirova, Yulbarsovna Laura //Actuality of psychological support in work with children from the risk group// ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, Volume 12. Issue 6. 2022. 51-56 pages.

30. Topvoldiyevna, M.E., & Adxam o'g'li, X.A. (2023). ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССОВ МЫШЛЕНИЯ ДЕТЕЙ С НАРУШЕНИЯМИ РЕЧИ, ОБУЧАЮЩИХСЯ В УСЛОВИЯХ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(1), 217-225.

31. Eleonora Topvoldievna Mirzajonova, Odinaxon Raxmanovna Parpiyeva //Modern Special Preschool Education: Problems and Solutions// Journal of Pedagogical Inventions and Practices. Vol. 9. 06-2022. 100-106 pages.

32. Mirzajonova, E.T. (2023). O 'SMIR YOSHDAGI O 'QUVCHILARDA AXBOROTDAN FOYDALANISH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING ILMYI NAZARIY ASOSLARI. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(3), 660-669.

33. Odinaxon Raxmanovna Parpiyeva, Eleonora Topvoldievna Mirzajonova //The role of psycho-oncology in the treatment of cancer patients// Texas Journal of Medical Science. 18-06-2022. 14-17 pages.

34. Eleonora Topvoldiyevna Mirzajonova, Dostonbek Muxtarjon o'g'li Masharipov //INKLYUZIV TA'LIM OLAYOTGAN BOLALARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARINI PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK O'RGANISH// INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM: a collection scientific works of the International scientific conference 25 th March, 2023. Washington, USA: "CESS", 2023. Part 28. 192-199 pages.

35. Э.Мирзажонова, А.Хомидов, Г.Мамажонова //АКТУАЛЬНОСТЬ ПЕРЕВОДА ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ МЕТОДИК// O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 9-SON. 20.06.2022. 211-217 betlar.



36. Мирзажонова, Э., & Хомидов, А. (2022). КОМПЛЕКСНОСТЬ И ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ КОРРЕКЦИОННОЙ РАБОТЫ С ДОШКОЛЬНИКАМИ С НАРУШЕНИЯМИ РАЗВИТИЯ. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(4), 209-219.
37. Mirzajonova, E., & Masharipov, D. (2023). SURUNKALI O'SIB BORUVCHI RUXIY KASALLIKLAR. Евразийский журнал академических исследований, 3(5), 90-94.
38. Pulatova, G., & Muhammadjonov, J. (2023). 5-6 YOSHLI MAKTABGACHA YOSHDAG'I BOLALARNING NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA ERTAK VA MAQOLLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI. Евразийский журнал академических исследований, 3(5 Part 3), 48-58.
39. Пулатова, Гулноза //Theoretical analysis of the study of the phenomenon of bilingualism// *Общество и инновации* 2.6/S (2021): 200-204.
40. Pulatova, G.M. //WAYS TO INFLUENCE THE CHILD'S PSYCHE THROUGH FAIRY-TALE THERAPY// *Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества*. 2020.
41. Pulatova Gulnoza, Toshboltaeva Nodira, //Conflict logical Competence of the Teacher as A Condition for Positive Interaction in the Educational Environment// *Eurasian Journal of Research, Development and Innovation. Volume 14| November, 2022. 14-17 pages.*